



ISSN 2181-3787  
E-ISSN 2181-3795

**“PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA”**  
xalqaro ilmiy-metodik jurnal

**«ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ»**  
международный научно-методический журнал

**“PEDAGOGICAL ACMEOLOGY”**  
international scientific-methodical journal

**№3(11) 2024**

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAK Rayosatining 2023-yil 5-maydagi 337-qarori bilan **07.00.00 - tarix, 13.00.00 - pedagogika, 19.00.00 - psixologiya** fanlari bo‘yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan zaruruiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.



**Jurnal haqida**  
*Jurnalga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan ommaviy axborot vositasi davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida 1672 raqamli guvohnoma berilgan.*

*"Pedagogik akmeologiya" xalqaro ilmiy-metodik jurnali*

"Pedagogik akmeologiya" xalqaro ilmiy-metodik jurnaliga taqdim etilgan ilmiy maqolalarga qo'yiladigan asosiy talablar falsafa doktori (PhD), fan doktori (DSc) dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini xalqaro standartlar va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Oliy attestatsiya komissiyasi to'g'risidagi Nizom" talablari, shu jumladan elektron ilmiy-texnik jurnallarga qo'yiladigan talablar tizimi hisoblanadi.

*«Педагогическая акмеология» международный научно-методический журнал*

Основные требования к научным статьям, представляемым в международном научно-методическом журнале «Педагогическая акмеология» являются научные труды, рекомендованные для публикации основных научных результатов докторских (PhD), (DSc) диссертаций в соответствии с международными стандартами и «Положением о Высшей аттестационной комиссии» при Кабинете Министров Республики Узбекистан, в частности требования к электронным научно-техническим журналам.

About the magazine

*"Pedagogical akmeology" international scientific-methodical journal*

The main requirements for scientific articles submitted to the international scientific-methodical journal "Pedagogical akmeology" are scientific publications recommended for the publication of the main scientific results of doctoral (PhD), (DSc) dissertations in accordance with international standards and the "Regulation on the Higher Attestation Commission" Under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan, including from templates in the system of requirements for electronic scientific and technical journals.

**Muassislar:** “Sadridin Salim Buxoriy” MCHJ “Durdona” nashriyoti,  
Buxoro davlat pedagogika instituti

**Tahririyat manzili:** O‘zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy

**Web-sayt:** [www.paresearchjournal.uz](http://www.paresearchjournal.uz)

**Bosh muharrir:**

Hamroyev Alijon Ro‘ziqulovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Bosh muharrir o‘rinbosari:**

Husenova Aziza Sharipovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

**Mas‘ul kotib:**

Bafayev Muhiddin Muhammadovich, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

#### **TAHRIR HAY‘ATI:**

*Muqimov Komil Muqimovich, O‘zR FA akademigi, fizika-matematika fanlari doktori, professor*

*Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

*Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Ibragimov Xolboy Ibragimovich, O‘zR FA akademigi, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Abdullayeva Barno Sayfiddinovna, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G‘arbiy Universitet, Bolgariya)*

*Madzigon Vasiliy Nikolayevich, akademik, pedagogika fanlari doktori, professor (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Kiyev)*

*Maksimenko Sergey Dmitriyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Kiyev)*

*Chudakova Vera Petrovna, psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Ukraina)*

*Kozubsov Igor Nikolayevich, pedagogika fanlari doktori, dotsent (Kiyev, Ukraina)*

*Mustafa Said Arslon, filologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)*

*Tadjixodjayev Zokirxo‘ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor*

*To‘xsanov Qahramon Rahimboyevich, filologiya fanlari doktori, dotsent*

*Muhitdinova Xadicha Sobirovna, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Niyozmetova Roza Hasanovna, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Sobirova Maxbuba Yusupdjanovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor*

*O‘rayeva Darmonoy Saidaxmedovna, filologiya fanlari doktori, professor*

*Rahimov Sharof Amonovich, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent*

*Rasulov To‘lqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor*

*Hayitov Shodmon Axmadovich, tarix fanlari doktori, professor*

*To‘rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor*

*Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

*Bo‘taboyev Muhammadjon To‘ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

*Ibragimova Gulsanam Nematovna, pedagogika fanlari doktori, dotsent*

*Kadirov Xayot Sharipovich, pedagogika fanlari doktori, dotsent*

*Jalilova Saboxat Xalilovna, psixologiya fanlari nomzodi, dotsent*

*Atabayeva Nargis Batirovna, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

*Xudoyqulov Xol Jumayevich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Jumaniyozova Muhabbat Husenovna, filologiya fanlari nomzodi, dotsent*

*Farmonova Shabon Muhamadovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

*Qo‘ldoshev Rustambek Avezmurodovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent*

*Rajabov To‘xtasin Ibodovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor*

*Qilichov Oybek Abdurasulovich, tarix fanlari doktori (DSc)*

*Abdullayev Mehriddin Junaydulloyevich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor*

*Qodirov Rashid Hamidovich, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent*

*Toshtemirov Oybek Abidovich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

## MUNDARIJA

### **MAXTUMQULI TAVALLUDINING 300 YILLIGIGA ..... 7**

Бахтиёр Назаров, Ғайрат Муродов. Махтумқули ижоди – ибрат ва ҳайрат манбаси ..... 7

### **07.00.00 – TARIX..... 14**

Haitov Jahongir Shodmonovich, Aslonov Axmadjon Gani o‘g‘li. O‘zbekiston mustaqilligining dastlabki yillarida mdh davlatlari bilan hamkorlik aloqalari tarixidan ..... 14

Shodiyeva Shahlo Soliyevna, Rahmatilloev Nusratillo Hikmatillo o‘g‘li. Buxoro amirligidagi savdo munosabatlari chet el sayyohlari nigohida..... 18

Elova Dilnoza Davlatovna. Turkiston xo‘jaligiga markazdan qochuvchi nasos texnikasining kirib kelishi tarixidan (XIX asr oxiri - XX asr boshlari) ..... 23

Зарипов Содик Джураевич. Подготовка кадров для развития народного хозяйства послевоенные годы ..... 27

To‘rayev Anvar Ismoilovich. Buxoro turkmanlarning moddiy madaniyatida taqinchoqlarning o‘rni ..... 31

Erkinova Nilufar Mirshod qizi. Buyuk ipak yo‘lida so‘g‘dliklar faoliyati tarixiga doir masalalar..... 35

Umidjon Baqoyev Shuhrat o‘g‘li. Tarixiy hujjat va manbalarda Ashtarxoniyalar sulolasi va usmoniyalar imperiyasi diplomatik aloqalarining yoritilishi ..... 39

### **13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI..... 46**

Muxitdinova Xadicha Sabirovna. Til ta‘limining boshlang‘ich bosqichida to‘g‘ri o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish..... 46

Jumaniyozova Muhabbat Xusinovna, Shukurullayeva Nodira Qahramon qizi. Boshlang‘ich sinflarda so‘z turkumlarini o‘rgatishga innovatsion yondashuv (4-sinfda ot so‘z turkumini o‘rgatish darslari misolida)..... 49

Jumanova Fatima Uralovna. Yangi O‘zbekistonda o‘qituvchi kasbiga oid innovatsion kompetensiyani rivojlantirishning genezisi..... 52

Хазратова Дилшода Азамовна, Кадирова Зулфия Кобуловна. Использование современных химических компьютерных программ при преподавании темы «Структура и изомерия алканов» ..... 56

Ollaberganova Sanobar Xamidovna. Voqelikni aks ettirish mezonlarining o‘zbek xalq ertaklarida ifodalanishi ..... 61

Ruxsora Xalilova Raupovna. Notiqlik ta‘limotida “Individual nutq uslubi” ..... 65

Kinjayeva Gulbahor Sattorqulovna. Raqamli texnologiyalar orqali chet tillarni o‘qitish va o‘rganishning imkoniyatlari ..... 68

Olimov Temir Hasanovich. Ilmiy tadqiqot ishi bilan shug‘ullanuvchilarda zamonaviy ta‘lim vositalaridan samarali foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish..... 74

Navbahor Salayeva. Alohida ta‘lim ehtiyojlariga ega o‘quvchilar bilan ishlashning o‘ziga xos xususiyatlari ..... 78

Nurmatova Iroda Toxtasinovna. Maktabgacha yoshdagi bolalarning musiqiy va teatr faoliyatida ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish shartlari ..... 83

Uzoqov Asliddin Mexriddinovich. Talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ijtimoiy institutlar faoliyatining ahamiyati ..... 87

Хаджиева Д.А., И.М.Шарибова, Подготовка учащихся начальной школы к грамотности. 92

To'rayev Anvar Ismoilovich

Buxoro davlat universiteti  
jahon tarixi kafedrası katta o'qituvchisi.

[a.i.turaev@buxdu.uz](mailto:a.i.turaev@buxdu.uz)

---

## BUXORO TURKMANLARNING MODDIY MADANIYATIDA TAQINCHOQLARNING O'RNI

---

**Annotasiya:** Ushbu maqolada Buxoro vohasida yashab kelgan turkmanlar taqib kelgan taqinchoqlarning mahalliy aholining taqinchoqlari bilan o'xshash va farqli jihatlari o'rganilgan. Shuningdek, taqinchoqlarni yasashda foydalanilgan qimmatbaho metallar va toshlar, tarixiy davrlar mobaynida turkman aholisining moddiy buyumi bo'lmish taqinchoqlarning qadrlanib kelishi va bugungi kunda ularga bo'lgan qiziqishning yuqoriligi, taqinchoqlar insonlarni turli ofat va balo-qazolardan asrash bilan bog'liq diniy e'tiqodlar tahlili keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Buxoro vohasi, Turkman milliy madaniy markazi, kvadrat, uchburchak, to'rtburchak, oltin, kumush, qizil agat ("qon toshi"), serdolik, yashma, yoqut, totem, fetishizm, axal-teke, qo'chqor shoxi, tuya, sakkiz qirrali yulduz, aylana, romb, oval, sardifar.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются сходства и различия между украшениями туркмен, проживавших в Бухарском оазисе, и украшениями местного населения. Также дан анализ драгоценных металлов и камней, используемых при изготовлении ювелирных изделий, оценка ювелирных изделий как материального предмета туркменского населения в исторические периоды и высокий интерес к ним в наши дни, а также религиозные воззрения, связанные с тем, что украшения защищают людей от различных представлений катаклизмы и катастрофы.

**Ключевые слова:** Ключевые слова: Бухарский оазис, туркменский национально-культурный центр, квадрат, треугольник, прямоугольник, золото, красный агат ("кровавый камень") сердолик, яшма, рубин, тоtem, фетишизм, ахал-теке, бараний рог, восьмиконечная звезда, круг, ромб, овал, сардина.

**Abstract:** This article examines the similarities and differences between the jewelry worn by the Turkmens who lived in the Bukhara oasis and the jewelry of the local population. Also, an analysis of precious metals and stones used in making jewelry, the appreciation of jewelry as a material item of the Turkmen population during historical periods and the high interest in it today, and religious beliefs related to the fact that jewelry protects people from various disasters and calamities is presented.

**Key words:** Bukhara oasis, Turkmen national cultural center, square, triangle, rectangle, gold, silver, red agate ("blood stone"), serdolik, jasper, ruby, totem, fetishism, akhal-teke, sheep horn, camel, eight-pointed star, circle, rhombus, oval, sardine.

**Kirish.** Turkman taqinchoqlari ham milliy liboslar kabi o'ziga xos jihatlari bilan boshqa etnos vakillari tomonidan taqib kelingan zebu-ziyat buyumlaridan farq qilgan. Bugungi kunda aksariyat turkman urug'lari taqinchoqlarining rang-barangligi bu o'g'uz-turkman qabila-urug'larining son jihatdan ko'pligi, qolaversa, qo'shni millat vakillari bilan madaniy, iqtisodiy, ijtimoiy munosabatlar uzoq tarixiy davrlar mobaynida mustahkamlanib, bir-biri bilan qo'shib ketganligi bilan bog'liq. Turkiston zaminida yashab kelgan o'zbek, turkman, qirg'iz, qozoq, tojik millatlari vakillari qadim zamonlardan buyon bir daryodan suv ichib, chorva mollarini bir yaylovda o'tlatib kelganliklari, ular o'rtasida birlik va o'zaro yaqinlikni keltirib chiqargan. Turkiy etnoslar o'rtasidagi o'zaro hamjihatlik, xo'jalik an'alarining uzviy bog'liq bo'lganligi, o'z navbatida ularning moddiy madaniyatiga ham ta'sir etganligini ko'rishimiz mumkin.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, o'ziga xos san'at asari bo'lgan turkman taqinchoqlarining yaqqol ko'zga tashlanib turadigan jihati, ularning yirik o'lchamliligi va vaznining og'irligi bilan boshqa millat vakillarining taqinchoqlaridan ajralib turgan. Odatda turkman ayol va qizlarining oilada taqib yurgan taqinchoqlari og'irligi 6 kg dan 8 kg gacha bo'lib, turmushga chiqayotganda esa qizlar taqadigan zebu-ziynat buyumlarining vazni 17-20 kg gacha yetgan[9]. Bunday og'irlikdagi taqinchoqlarning taqib yurilishi ayollarning harakat qilishlarini birmuncha qiyinlashtirgan. Taqinchoqlarni bosh kiyimlariga quloqqa, bo'yinga, ko'ylak ustidan ko'krakka, barmoq va bilaklarga taqilganligi sababli, ularni taqish ko'p vaqt sarf qilinganligi bois, to'y va bazmlarga borishga doimo tayyor bo'lib turish maqsadida, ayollar uyda ham taqinchoqlarni taqib yurganlar.

Buxorodagi turkman ayollarining ko'ylaklari rang-barang ko'rinishga ega bo'lgan bo'lsada, lekin, ular tomonidan taqiladigan zeb-ziynat buyumlari oddiy ko'rinish kasb etib, mahalliy aholining taqinchoqlaridan uncha ko'p farq qilmagan. Buxoroda turkman ayollari uchun, alohida taqinchoq yasaydigan zargarlik ustaxonalari bo'lmaganligi sababli, ular o'zbek va tojik ayollariga xos bo'lgan taqinchoqlarini ham taqib kelganlar. Turkmaniston Respublikasidan Buxoroga kelin bo'lib tushganda, ota-onalar o'z qizlarining sepiga milliy liboslar bilan birga turkman taqinchoqlarini ham qo'shib yuborganlar[2]. Turmushga chiqqan bu kelinlar o'zlari bilan olib kelgan taqinchoqlarini hozirgi vaqtda yaqin qarindoshlarining to'y-bazmlarida, Buxoroda faoliyat yuritayotgan *"Turkman milliy madaniy markazi"* tomonidan o'tkazib kelinayotgan tadbirlarda va mehmon bo'lib kelgan qavm-qarindoshlari oldida taqib kelishmoqda. Kiyim-kechaklardagi yangilanishlar va uning transformatsiyasi, taqinchoqlarning ayrim xillarini iste'moldan chiqib ketishiga sabab bo'lgan[3.12]. Jumladan, yirik o'lchamdagi tashqi ko'rinishi turlicha bo'lgan: kvadrat, uchburchak, to'rtburchak shaklidagi, harakat vaqtida bir-biriga tegib ovoz chiqarib turadigan taqinchoqlar[7.97] muomaladan chiqarilib, bugungi kunda dunyoning nufuzli muzeylaridan joy olmoqda. Hozirgi vaqtda bunday taqinchoqlarning ayrimlari Buxorodagi ark muzeyi qo'riqxonasida ham, eksponat sifatida saqlanib kelmoqda. Shuningdek, ko'plab aholi qo'lida katta o'lchamdagi ayollarning bo'yniga taqib kelgan ashq va ko'krak bo'ylab taqiladigan uchburchak, yurak ko'rinishiga ega bo'lgan sordifor taqinchoqlari, hozirgi vaqtda ayollar tomonidan taqilmayotganligini ko'rishimiz mumkin. Bugungi kunda bunday ko'rinishdagi taqinchoq va marjonlar iste'moldan chiqarilib, ular javon va sandiqlarda saqlanib kelmoqda.

To'y va bazmlardan tashqari kundalik turmushda ham, turkman ayollari boshlariga, quloqlariga, burunlariga, qo'llariga[4.132] shuningdek, bo'yin va ko'krak old qismiga, hattoki, ko'ylak va xalatlar ustidan ham taqinchoqlar taqib kelganlar[5.228]. Ko'p hollarda zeb-ziynat buyumlarini yaqqol ko'zga tashlanib turishi uchun, kiyimlar ustidan ham taqqanlar, bu esa, turkman ayollarida o'z go'zalliklariga yuqori baho berish, boshqalar ularni hurmat qilishi, e'zozlashi kerak degan tuyg'ularni keltirib chiqargan. Doimo taqinchoqlarga ehtiyoj bo'lib kelganligi sababli, Buxoroga kelin bo'lib tushgan turkman ayollari qo'shni Turkmaniston Respublikasiga mehmonga borgan vaqtlarida zargar ustalarga murojaat qilib kelganlar. Hunarmand ustalar ayollarining qiziqishiga monand, turkman qabila-urug'larining kiyinish uslubiga, ularning xarakter xususiyatlariga, yoshiga mos holda turli xil ko'rinishdagi taqinchoqlarni yasab berganlar.

Taqinchoqlar asosan oltin, kumush, misdan yasalgan va feruza, yoqut, serdolik, yashma, marjon toshlari bilan bezatilgan, ammo taqinchoqlarning asosiy tarkibi kumush bo'lib, oltin kamdan-kam hollarda ishlatilgan. Taqinchoqlarda oltin bordek ko'ringan bo'lsada, asosiy metall kumush bo'lib, kamdan-kam hollarda kumush ustidan oltin suvi yuritilgan. Asosan kumushdan foydalanilishi bejiz emas, chunki, turkmanlarning qadimiy odatlarga ko'ra, kumush insonlarni davolovchi va mulkini qo'riqlovchi xususiyatlarga ega deb qaralgan. Bugungi kungacha eng ko'p qadrlanib ishlatib kelingan serdolik toshi, xonadonga mo'l-ko'lchilik, baxt va tinchlik olib kelishi hamda, taqinchoq egasining sog'lig'ini saqlab, yomon ko'zlardan asrashiga ishonilgan. Shuningdek, qizil agat yoki "qon toshi" qon oqishi va jarohatdan saqlovchi, feruza esa pokizalik va bokiralik ma'nolarini anglatgan[10]. Turkman madaniyatida qizil rang juda muhim bo'lib, ustki kiyib-boshlarida, san'at asarlarida ham eng ko'p qizil rangdan foydalanilgan. Bu esa, turkman

xalqi dunyoqarashida fetishizm alomatlarining yaqqol namoyon bo'lishini ko'rsatadi, ya'ni turkmanlarda taqinchoqlar va ularni yasashda ishlatiladigan ayrim toshlarning insonlarni balo-qazolardan asrashi, yoxud himoya qilishiga ishonch mavjud bo'lgan.

Arxeologik topilmalarning guvohlik berishicha, turkmanlarda taqinchoqlardan nafaqat ayollar balki, bolalar va erkaklar ham foydalanishgan. Hatto, mashhur Axal-teke otlarning egarlari ham kumushdan yasalgan va qimmatbaho toshlar qadalgan taqinchoqlar bilan bezatilgan bo'lib, buning asosiy sababi urushlarda qatnashgan otlarga nisbatan hurmat belgisi bo'lib, ularni kasallik va ko'z tegishidan asraydi deb hisoblaganlar[11]. Turkmanlarda zeb-ziynat va taqinchoqlarga qiziqish yuqoriligi sababli, nafaqat insonlarda, balki hayvonlarda ham bezak sifatida qo'llanilganligining guvohi bo'lamiz.

Islom dini, afsonalarga ishonish, atrof-muhitni kuzatish turkman san'atida muhim rol o'ynagan 3 asosiy omillar sanaladi. Butun turkman xalq san'ati tabiat va atrof-muhit bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqaga ega bo'lib, tabiat turkman san'at shajarasining ibtidosi hisoblanadi. Biroq, Islom dinining kirib kelishi taqinchoqlarni yasash san'ati, ulardagi shakl va naqshlar ko'rinishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Taqinchoqlarda ko'p uchraydigan inson va turli mavjudot ko'rinishlari asta-sekinlik bilan zeb-ziynatlardagi naqshlardan surib chiqarila boshlandi. Bu jarayon bevosita islom dinida tirik mavjudotlarni tasvirlash (aslida ularni tasvirlab sig'inish)ning taqiqlanishi bilan bog'liq edi[6.6].

Turkman milliy taqinchoqlarida qo'llanilgan shakllar bir necha guruhlariga bo'linadi:

1. *Hayvonlar shakllari:* qo'chqor shoxi, tuya, bo'ri, qushlar, va boshqalar. Turkman hunarmandchiligida qo'chqor shoxi shakli eng ko'p ishlatilgan bo'lib, qo'chqor shoxi ko'chmanchi hayot tarzi, hosildorlik va kuch-qudrat ramzi hisoblangan. Ba'zi qabrtoshlardagi qo'chqor shoxi shakli, tasviri, haykali marhumning jasorati yoki cho'ponlik kasbining belgisi sanalib, turkman taqinchoqlarining ham ko'plab turlarida qo'llanilgan. Bir necha turkman va o'g'uz qabilalarining bo'rini o'zlarining totemi, ya'ni ajdodi deb hisoblaganliklari uchun ham bo'rining oltin boshini o'z bayroqlarida tasvirlashgan, bundan tashqari, bo'ri tasviri «Bokav» deb nomlangan zeb-ziynatni yasashda foydalanilgan. Turkmanlar yirtqich qushlarni qudrat va ulug'vorlik ramzi deb hisoblaganlar, shuning uchun, yirtqich qushlarga nisbatan o'zgacha qiziqish mavjud bo'lib, tuya esa sabr toqat va chidamlilik timsoli sanalgan.

Bundan ma'lum bo'ladiki, har bir qabila va urug' turli hayvonlardan o'zlariga totem tanlab va ularni o'zlarining ramzlari sifatida ifodalab, taqinchoqlarida ham ularni aks ettirishga harakat qilganlar.

2. *O'simlik shakllari:* 5-9 ta barglari bo'lgan gullar turkman zeb-ziynatlarining turli qismlarida ko'plab uchraydi, chunki 9 raqami turkmanlarda muqaddas raqam hisoblangan. Farzand ko'rmagan ayollar muqaddas gul tasvirini ko'ylaklari yengi va yoqasiga tushirishsa, farzandli bo'lishlariga astoydil ishonishgan.

3. *Inson shakllari* ko'proq mavhum ko'rinishda tasvirlangan.

4. *Samoviy shakllar:* Turkman ayollari 8 burchakli yulduz (quyosh ramzi)ni omad va baxt timsoli deb bilishgan, shuning uchun taqinchoq ustalari o'z taqinchoqlarida 8 burchakli yulduz naqshini ko'p ishlatganlar. Turkmanlar quyosh va oyni nur va yorug'lik ramzi sifatida bilishgan hamda bu shakl asosan atrofida boshqa doiralar bo'lgan aylana ko'rinishida ifodalangan. Quyosh va oy atrofidagi bezak toshlari - porlayotgan yulduzlar ma'nosini bildirgan.

5. *Geometrik shakllar* taqinchoqlarda juda kichkina ko'rinishda qo'llanilib, asosan aylana, oval, teshik va bodom shaklidagi toshlar ishlatilgan. Taqinchoqlardagi oltiburchak, romb va uchburchak ko'rinishdagi shakllar esa, balo-qazolardan saqlanish uchun foydalanilgan.

6. *Arab yoki islomiy shakllar* ham ko'proq taqinchoqlarda foydalanilgan[12]. Bunga sabab, islom dini aholi o'rtasida keng tarqalgan bo'lib, unga e'tiqod qilish kuchayib borgan.

Tuya Turkmanlar orasida chidamlilik va bag'rikenglik ramzi sifatida tuya muqaddas hisoblangan. Tuyalar og'ir yo'llarni bosib o'tishda insonlarga yordam berib kelganligi sababli, zargar ustalar zebu-ziynat buyumlarni tuya ko'rinishiga monand tayyorlaganlar. Azaldan tuya uyga baraka olib keladi deb har bir xonadon egasi uyida tuya boqib kelgan. Qolaversa, tuya go'shti boshqa chorva mollari ishida eng halol go'sht deb hisoblanganligi uchun oilalarda tuya boqilib

34 kelingan. Turkman qizlari turmushga chiqib, boshqa xonadonga ketishdan oldin kelinning onasi qiziga tuya ramzi tushirilgan taqinchoqni sovg'a qilgan. Turmush qurgan oilalar hayotda chidamli, bardoshli, xonadoniga qut-baraka olib kelsin deb tuyani ko'rinishdagi taqinchoqlar sovg'a qilishgan.

Taqinchoqlarni taqish o'ziga xos magik xususiyatlarga ham ega bo'lganki, biz buni ularni yasashda ularning uslublarida: islamiy, geometrik, samoviy, hayvonot va o'simliklar dunyosi asos qilib olinganligini yaqqol ko'rishimiz mumkin[4.117]. Taqinchoqlarni taqish faqat inson go'zal ko'rinishi uchun emas, balki ularni yovuz ruhlar ta'siridan himoya qilishi, turli xil kelishi mumkin bo'lgan balo-qazolarni oldini olishi mumkin, deb o'ylashgan. Turkman taqinchoqlarini bezashda ishlatilgan oltin, kumush, mis, feruza, marjon va boshqa qimmatbaho toshlarning har biri ma'lum bir ma'noga ega bo'lib, ular ko'proq insonlarni himoya qiluvchi, ofatlardan asrovchi va xonadonlarga rizq keltiruvchi kuch sifatida qarab kelingan[8.89].

**Xulosa.** Turkman taqinchoqlarining boshqa millat taqinchoqlaridan ajralib turadigan jihati, ularning o'ziga xos ko'rinishi bo'lib, yuqorida keltirilgan ma'lumotlar esa, fikrimizning yaqqol dalili bo'lib xizmat qiladi. Turkman taqinchoqlarini usta hunarmandlarning o'ziga xos yaratgan san'at asarlari desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu taqinchoqlarni yasashda ular bir xillikdan qochib, milliylikni o'zida saqlab qolgan holda, turkmanlarning urf-odatlarini, asriy qadriyatlarini keyingi avlodlar uchun saqlab qolganlar.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Doniyorov A. X., Bo'riyev O. B., Ashirov A.A. Markaziy Osiyo xalqlari etnologiyasi. -T.: "NIF MSH", 2020. -B. 242.
2. Дала ёзувлари. Бухоро вилоят, Бухоро туман, Чорраха қишлоғи. 2023 йил.
3. Давлатова С. Ўзбек кийимлари атамалари изоҳли луғати.-Т.: "Янги нашр", 2017. -Б. 159.
4. Нуруллаева Ш. Хоразм анъанавий кийимлари. -Т.: "Yangi nashr", 2013. -Б. 189.
5. Rahmatullayeva D., Xodjayeva U., Ataxanova F. Libos tarixi. -T.: "Sano-standart", 2015. -B. 298.
6. Rabah Saoud. Introduction to Muslim art. Manchester: FSTC, 2004. -B. 55.
7. Туманович О. Туркменистон и Туркмены (Материалы к изучению истории и этнографии). Асхабад "Полторацк", 1926. -С. 189.
8. **Shamsiddinova Sh., Hotamov H. Туркман тақинчоқларининг кўриниши ва уларда ўзига хос услубнинг акс этиши. World of Science. Vol. 6 No. 4 (2023). -Б. 356.**
9. <https://chitrolekha.com/jewelry-of-turkmen-women/> Hossein Noruzi, Imanzakariai Kermani. Concepts of Motifs in Culture: a Review of the Jewelry of Turkmen Women. Isfahan, 2015.
10. [https://www.metmuseum.org/toah/hd/turk/hd\\_turk.htm](https://www.metmuseum.org/toah/hd/turk/hd_turk.htm). Department of Islamic Art. "Turkmen Jewelry." In *Heilbrunn Timeline of Art History*. New York: The Metropolitan Museum of Art, 2000.
11. <https://turkmenportal.com/en/compositions/327> Turkmen jewelry: the charm of ancient mystery. 2017.
12. <https://chitrolekha.com/jewelry-of-turkmen-women/> Hossein Noruzi, Imanzakariai Kermani. Concepts of Motifs in Culture: a Review of the Jewelry of Turkmen Women. Isfahan, 2015.